



XORAZM VILOYATIDAGI MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLLARI NOMLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xusainova Guli Shavkatovna

Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi madaniy meros obidalarining nomlanishini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the naming of cultural heritage sites in the Khorezm region from the point of view of linguistics.

Аннотация: В данной статье анализируется наименование объектов культурного наследия Хорезмской области с точки зрения языкознания.

Kalit so‘zlar: til, onomastika, toponomiya, Xorazm, moddiy madaniy meros, rivoyat, afsona, geografik obyekt.

Ключевые слова: язык, ономастика, топонимия, Хорезм, материальное культурное наследие, нарратив, миф, географический объект.

Key words: language, onomastics, toponomy, Khorezm, material cultural heritage, narrative, myth, geographical object.

Til insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan, odamlarga o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash imkonini beruvchi qimmatli boylik hisoblanadi va ular shaxs va jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Toponimlar xalqning eng qimmatli qadriyatlaridan biridir. Chunki biror joy tasodifan nomlanmaydi. Joylarni nomlashda millat madaniyati, qadriyatlari va tarixining izlari, o‘sha joyda yashovchi aholi, nomlanishi kerak bo‘lgan joyning shakli va xususiyatlari hisobga olinadi. Shuning uchun ham, joy nomida ko‘plab madaniy, tarixiy va milliy unsurlarni uchratishimiz mumkin. Turkiy xalqlarning eng qadimgi manzilgohlaridan biri bo‘lgan Xorazm Ipak yo‘li, turli madaniyat va e‘tiqodlar, turli xil siyosiy boshqaruv shakllariga mezbonlik qilgan hudud bo‘lib, joy nomlari jihatidan juda boy mintaqadir. Hududdagi moddiy-madaniy meros obyektlari nomlari tekshirilganda qaysi nomlarning qaysi davrda qo‘llanganligi, til xususiyatlari va sabablarini aniqlashimiz mumkin. Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatidagi moddiy madaniy meros obyektlari nomlari, tili, dini, madaniyati, tarixi va siyosiy sabablari kabi omillar aniqlanishi hamda tasniflanib tekshirilishi, shu bilan birga, Xorazm viloyatidagi moddiy madaniy meros obyektlari nomlanishida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan sanalmish afsona va rivoyatlarning o‘rni yuzasidan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilar qadim zamonlardan o‘zlarini, mavjudotlarni, jonzotlarni, tushunchalarni bir-biridan farqlash va aniqlash maqsadida tildan foydalanib ularga nom berishni boshlaganlar va bu hozirgacha shunday davom qilib kelmoqda. Nom qo‘yish tilning naqadar boy ekanligining ko‘rsatkichi sifatida qabul qilinadi. Bu jarayon uning mazmun



jihatan boy til ekanligini ham ko‘rsatadi. Insoniyat tarixidek qadimiy bo‘lgan nomlashlar doimo mutaxassislarning e‘tiborini tortib kelganligi bois nafaqat tadqiqot mavzusiga aylandi, balki Onomastika fanining paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi.

O‘zbek tili leksikasidagi onomastik birliklar bir qadar tekshirilgan. Xususan, o‘zbek tilshunosligida moddiy madaniy meros obyektlari nomlari tadqiqi qisman V.I.Abayev¹⁴, F.Abdullayev¹⁵, H.Dadaboyev¹⁶, Z.Do‘simov¹⁷, R.Yo‘ldoshev¹⁸, A.O‘razboyev¹⁹, A.Primov, E.Madaminov, M.Tillayeva²⁰, Sh.Norboyeva, R.Maxmudov²¹ kabi tadqiqotchilar ishlarida kuzatiladi.

Hozirgi jamiyatni, zamonaviy sivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik, jumladan, madaniy meros obyektlari nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy, turistik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, xilma-xil tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsuli hisoblanadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Moddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish, ulardan oqilona foydalanish va yurtimizning sayyohlik salohiyatini oshirishda ularning o‘rni va ahamiyatini belgilash hamda moddiy-madaniy meros sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirish maqsadida Respublikamizda bir qator qonun, qaror va farmon hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, 2011-yil “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinguniga qadar geografik obyektlarning nomlari sohasidagi munosabatlarni 1996-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi qonun asosiy hujjat bo‘lib kelgan.

2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni²², O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 265-sonli qaroriga asosan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida

¹⁴ Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Том II. –Л.: Наука, 1973.

¹⁵ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I қисм. Луғат. II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961. –346 б.

¹⁶ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. –185 (1) с.

¹⁷ Дўсимов З.Хоразм топонимлари «Фан» нашриёти, Тошкент, 1985., Дўсимов З. Хоразм топонимияси ва «Авесто» . // «Авесто» – буюк қомусий асар. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 13-16.

¹⁸ Ўлдошев Р. «Авесто» эзуви ва тили // «Авесто» – буюк қомусий асар. – Тошкент, 2001. – Б. 17-19.

¹⁹ Ўрозбоев А. Оғаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: «Muharrir nashriyoti», 2013.

²⁰ Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. («Авесто» ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2006

²¹ Р.Махмудов. Оғаҳий тарихий асарларида ўзлашмалар. Филол. фанлари док. дисс. – Тошкент, 2022

²² <https://lex.uz/docs/4262171?ONDATE=09.01.2021&ONDATE2=20.12.2019&action=compare>



mutasaddi tashkilotlar tomonidan Xorazm viloyatidagi ikki yuzdan ortiq moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan.

Hozirgi kunda geografik obyektlarning nomlari davlat reestrining ma'lumotlar bazasida mavjud obyektlar nomlari soni 92846 ta bo'lib, shundan Xorazm viloyatidagi moddiy madaniy meros obyektlari ikki yuzdan ortiqni tashkil qiladi va bu obyektlar arxeologiya yodgorliklari, arxitektura yodgorliklari, monumental san'at yodgorliklari hamda diqqatga sazovor joylarga bo'lib guruhlangan.

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.

Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari Rezentativ ro'yxatiga 4 ta me'moriy majmua - Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek, Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016) va 9 ta nomoddiy meros obyektlari kiradi.²³

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga, balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Ming yillar mobaynida, o'zbek folklori, minoralar va qadimiy gumbazlar ko'plab shaharlarning tashrif qog'ozi, shahar manzaralari, ularning diniy va ma'rifiy muassasalari - masjid va madrasalarining go'zal aksiga aylandi.

Kurrayi zaminning eng ko'hna shaharlaridan biri Xiva o'zining boy tarixiga ega [1, 4].

Darvoqe, Xiva shahri va nomi qachon paydo bo'lgan? Biz bu savolga ushbu maqolamizda rivoyat va afsonalar orqali javob berishga harakat qilamiz.

Xiva o'rta asr sharq me'morchiligining tengsiz javohiridir. Xiva shahrida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasi shuni ko'rsatadiki, "Ichan qal'a" hududi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo'lgan [2,167-172].

Xiva hozirgi Urganch shahridan 25 km janub tomonidagi tekislikda joylashgan. Bir paytlar bu zamin qadimiy Xorazm davlati tasarrufida bo'lgan. Xiva shahri to'g'risidagi dastlabki ishonchli ma'lumotlar X asrlardan boshlab arab-fors tilidagi tarixiy-jo'g'rofiy manbalarda uchraydi. Ulardan birida aytilishicha, Nuh payg'ambar davrida insonlar Haq yo'lidan adashib, Allohni tan olmay jaholat yo'liga kirishibdi. Bundan tashvishga tushgan payg'ambar Allohga insonlardan shikoyat qilibdi. Alloh tez vaqtda katta to'fon bo'lishini, undan oldin Nuh payg'ambar o'ziga yaqin odamlarni saqlab qolishi uchun katta bir kema yasashini buyuribdi. Nuh alayhissalom bu kemani tuzatibdi va unga Alloh yo'lidan adashmaganlar bilan birga yana har bir jonzotdan bir juftdan mindiribdi. Xudoning amri

²³ <https://uzheritage.org/uz/posts/ozbekiston-madaniy-merosi-haqida-qisqacha>



bilan qirq kun yoqqan yomg'irdan yer yuzini suv bosibdi. Kemaga chiqib olgan odamlar va jonzotlar suvda uzoq suzishibdi. Bir kuni ular uzoqdan baland bir tepalikni ko'rishibdi. Bu yerga kelgach, Nuh kemadan tushib, shu yerda qolibdi va o'g'li Somga yana suzishni buyuribdi. Som kemada bir necha kun suzgandan keyin, quruq yerni topish uchun qushlarni uchirib ko'ribdi. Lekin hech quruqlik ko'rinmash. Bir kun Com Oqqush bilan Kabutarni uchiribdi, ular uzoq uchib quruq yerni topishibdi, shunda Oqqush sevinganidan «Quvoq! Quvoq!» deb ovoz beribdi, Kabutar esa qanotlarini tapillatibdi. Bu ovozni eshitgan Som kemani shu tomonga haydabdi. Kelib quruq yerga chiqishibdi va shu yerda yashab qolishibdi. Bu joyning nomini birinchi bo'lib xabar bergan Oqqushning «Quvoq! Quvoq!» degan so'zlari bilan atashibdi. Keyinchalik bu so'z «Xivoq», «Hevah», ya'ni "qanday yaxshi" so'ziga aylangan ekan.

Yana bir rivoyatlarga qaraganda, Xiva shahrining qadimiy qismida (hozirgi "Ichan qal'a" o'rnida) sahro bo'lgan. Marvdan Jurjoniya (Ko'hna Urganch) tomon o'tadigan ("Ipak-yo'li"ning shahobchasi) karvonlar yurgan. Shu karvon yo'lida ichimlik suvi saqlanadigan "Xivaq qudug'i" bo'lgan. Bo'lg'usi shaharning nomi ham ana shundan kelib chiqqan. [3, 5].

Xiva gavhari hisoblanmish Ichan qal'a o'ziga xos yaxlit me'moriy inshootlardan iborat bo'lib, baland paxsa devor bilan o'ralgan, to'rtta darvozasi- Ota darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza va Bog'cha darvoza to'rt tomonga qaratib qurilgan. Ichan qal'a devorlari vaqt o'tishi bilan bir necha bor buzilgan va qayta ta'mirlangan.

Deshon qal'a – rabot. Ichan qal'a atrofida XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Deshon qal'ada kambag'al-kosiblar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashashgan. Tikuvchilar (chitgarlar), kulollar, elakchilar, juvozchilar, misgarlar, tunukachilar va boshqa mahalla nomlari shu davrgacha saqlanib qolgan.

1920-yilgacha Xiva shahrining Ichan qal'a hududida 33 ta mahalla (machitqo'm) va Deshon qal'a hududida 34 ta mahalla mavjud bo'lib, ularning har biri o'z nomiga ega edi. Mahalla nomlari u yerda istiqomat qilgan kishilarning kasb-koridan darak berib turardi. Chunonchi, Chitkarlik, Alakchilik, Kulollar, Misgarlik, Gadoylar, Otomurod Qushbegi, Yoqub Mehtar, Yusuf Yassavulboshi va hakoza[3, 11].

Xorazm vohasi o'zining ko'plab madaniy moddiy-meros obyektlari va ziyoratgohlari bilan nafaqat O'zbekiston va Markaziy Osiyo, balki butun dunyoga mashhurligi bilan ham ajralib turadi. Qadimdan bu yurtida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat gullab yashnagan.

Sahro o'rtasida me'moriy obidalarining qurilishi, bu makonda o'ziga xos madaniyatning yuzaga keltirilishi, o'z tili va o'z alifbosiga ega bo'lishi bu xalqning qadimiyligidan va naqadar buyukligidan dalolatdir. Bu zamindan yetishib chiqqan Xorazmiylar, Beruniy va Zamahshariylar, Najmiddin Kubro va Pahlavon Mahmudlar, Munis va Ogahiyalar kabi alloma va hukmdorlar ham shaharning chiroyli bo'lishiga hissa qo'shganlar. Shuning uchun ham Xiva Ichon – Qal'asi 1967-yilda chin ma'noda "Ochiq osmon ostidagi" tarixiy - me'moriy muzey – qo'riqxonaga deb e'lon qilindi.

Xiva me'moriy obidalari ichida eng chiroyli va hashamatlisi Pahlavon Mahmud maqbarasidir. Pahlavon Mahmud (1247-1326) mashhur polvon, hunarmand po'stindo'z



usta va buyuk faylasuf shoir bo‘lgan. Jismoniy va ma’naviy kamolatni o‘zida mujassamlashtirgan bu yigitning shuhrati Movarounnahr va Xurosondan tortib Eron va Hindistongacha yetib boradi. U mashhur polvonlar bilan kurash tushadi, lekin hech yerda yengilmaydi, butun umri yelkasi yerga tegmay, mamlakatning bosh polvoni bo‘lib qoladi. Shu sababli xalq o‘rtasida juda ko‘p afsona va rivoyatlar paydo bo‘lib, uni mashhur polvon, xalq g‘amxo‘ri, ajoyib vatanparvar va shoir sifatida tilga oladilar. Xalq unga “Pahlavon” laqabini berib, uni “Pahlavon Mahmud”, “Polvon ota”, “Hazrati Polvon pir” deb e’zozlaydi. U xivaliklarning qalbidan shaharning piri (bosh homiysi), maqbarasi - shaharning langari²⁴ sifatida o‘rin olgan.

Rivoyatning yana boshqa bir aytilishida, Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Som bir kuni ovdan keyin, qumlikdagi baland bir tepalikning ustida yotib uxlaydi va tush ko‘radi. Tushiga otasi kirib, shu uxlab yotgan yerida bir qal’a qurishni buyuradi va «qal’aning shaklini mening kemamga o‘xshatib qurgin», - deydi. Shunda Som otasiga «kema shaklidagi shahar ham, kemadek chayqalib turuvchi bo‘ladiku», deganida, otasi unga, - «biz uning o‘rtasiga langar tashlaymiz», - deb javob beradi. Shundan keyin Som bu joyda otasi Nuhning kemasiga o‘xshatib qal’a barpo qiladi. Ya’ni, shaharning tarhi²⁵ ni chizib, qurgan kishi rivoyatlarga ko‘ra Nuh alayhissalomning o‘g‘li Som bo‘lgan [2, 120-123].

Xivaliklar Pahlavon Mahmud maqbarasini Nuh payg‘ambari tomonidan shaharning o‘rtasiga tashlangan langar deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham maqbara katta peshtog‘ining o‘ng qanotidaga koshin naqshlarga kema tasviri tushirilgan.

Maqbara koshinlaridagi naqsh gullarning aksari rangi oq, ko‘k va zangori bo‘lib, bu ranglarning tanlanishi ham bejiz emas edi. Chunki, qadimdan afsona va rivoyatlarda oq rang tozalik, yorug‘lik, baxt va omad ramzi, ko‘k rang moviy osmon, yomon kundan asrash va tinchlantiruvchi, zangori - oliy e’tiqod ramzini bildirgan va yovuz ruhlardan saqlagan. Naqshlarda ham olam-olam ma’nolar yashiringan. Masalan, aylana naqshlar ichiga har xil gullar rasmining yasalishi, yoki naqshlarning o‘zi aylana-aylana bo‘lib ketishi, yovuz niyatli kishini niyatidan qaytarish uchun qilingan. [2, 123-126].

Bugungi kunda Xorazm xalqi ana shu avliyo zotlar madfun bo‘lgan joylarni alohida hurmat va e’zoz bilan ziyorat qilib, atrofini obod qilib, ziyoratgoh maskanga aylantirgan. Bunday maskanlar hozirda Madaniy meros deportamenti tomonidan ro‘yxatga olinib, madaniy meros obyektlari qatorida davlat muhofazasiga kiritilgan.

E’tibor berilsa, Xorazm vohasidagi katta ko‘pchilik moddiy madaniy meros obyektlarining bugungi kundagi nomlari o‘rta asrlarda obyektga nom sifatida tanlangan va hamon ushbu nom yashab kelmoqda. Ammo xalq tilida ularning antik davrda tanlangan nomi ham qo‘llanadi. Xalqona nom har kishining e’tiborini tortishi shubhasiz. Chunki so‘zning asl ma’nosini anglasak, xalq nima sababdan ayni shu nom bilan ziyoratgohni atashini tushunib yetamiz.

²⁴ Langar – langar, karvonsaroy, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan joy. Kambag‘al, yetim-esirga ovqat beriladigan joy ma’nosini bildiradi. Xivacha langar - tenglovchi, teng tutuvchi, tarozi shayi.

²⁵ Tarh - loyiha, proekt.



Xalq tilidagi “Polvon pir” nomiga izoh beradigan bo‘lsak, “polvon” so‘zi tarixan eroniy qatlamga mansub so‘z bo‘lib, eski turkiy til tili davrida o‘zbek tiliga o‘zlashgan. So‘z fors tilida baquvvat, botir, qahramon, bahodir kabi ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilida asosan ikki ma’noda istifoda etiladi: 1) jismoniy jihatdan kuchli, baquvvat kishi; bahodir, pahlavon; 2) kurash tushadigan sportchi [5, 290].

Nomning ikkinchi qismi “pir” ham tarixan eroniy qatlamga mansub bo‘lib, eski turkiy til davrida o‘zlashgan. Fors tilida ushbu o‘zlashma kekxa, qari; diniy mazhab, tariqat asoschisi; hunarmandlar sarkori ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida mazkur o‘zlashma asosan quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi: 1) uzoq umr ko‘rgan kishi; kekxa. Shu ma’noda “piri badavlat” iborasida uchraydi; 2) diniy mazhab boshlig‘i, diniy rahbar. Shu ma’noda “yo pirim” birikmasida uchraydi; 3) biror kasbning asoschisi, homiysi deb tushuniladigan, ko‘pincha, afsonaviy va afsonalashtirilgan shaxs; 4) ko‘chma ma’noda: biror ish, kasb yoki sohani juda yaxshi egallagan, shu sohada o‘ta mohir usta kishi, ustoz. Ushbu so‘z, shuningdek, ota ma’nosini anglatadi va arab tilida **اب** deyiladi. Fors tilida qari, kekxa ma’nolarini ifodalovchi **سال خورده** so‘zi bilan yonma-yon, bir ma’noda qo‘llanadi. Yosh ma’nosini anglatuvchi **جوان** so‘zining antonimi. Alisher Navoiy asarlarida bu so‘z ustoz, boshlig‘; tasavvuf tariqatining boshlig‘i kabi ma’nolarda qo‘llanadi [4, 574].

Bino va inshootlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayoti, turmush darajasi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Xorazm viloyatidagi moddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-lisoniy nuqtayi nazardan o‘rganish necha ming yillar davomida viloyat hududida yashab kelayotgan xalqning ma’naviy merosi va madaniy mulki bo‘lib hisoblangan bu boyliklarning asrlar osha saqlanib qolishiga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Abdurasulov, Z.Abidova. “Xorazmdagi qadamjo va ziyoratgohlar” – T.: “Yangi nashr”. 2016.
2. K. Xudoyberganov, “Xiva - dunyodagi eng ko‘hna qal’a”, Toshkent, 2012.
3. D. Bobojonov, M Abdurasulov. “Firdavsmonand shahar”, 2008.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. T. II. T.: Fan.1983.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III tom. –T.: O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 2006.
6. <https://lex.uz/docs/4262171?ONDATE=09.01.2021&ONDATE2=20.12.2019&action=compare>
7. <https://uzheritage.org/uz/posts/ozbekiston-madaniy-merosi-haqida-qisqacha>